



AMIR TEMUR THE SAHIBQIRAN: AMIR OR SULTAN?

Oltinoy Masaliyevna Masaliyeva

Doctor of Historical Sciences (DSc),
Uzbekistan State University of World Languages
Tashkent, Uzbekistan

Muhammad Abdulaziz Muhitdinov

Cyber State University
Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Amir Temur, sahibqiran, kuragon, chingizids, “yaso”, sultan, legitimacy, Timurid state.

Received: 04.08.26

Accepted: 05.08.26

Published: 06.08.26

Abstract: This article analyzes the political title of Temur, the great statesman and commander of the 14th century, and the issues of legitimacy in his state administration. Based on historical sources, the study discusses whether it is true that despite establishing a vast empire, Temur chose the statuses of “Amir” and “kuragon” rather than the titles of “sultan” or “khan”. The article examines the synthesis between the “Yassa” laws of the Chingizids and the traditions of Islamic statehood, as well as Temur's status in international diplomatic relations.

SOHIBQIRON TEMUR: AMIRMI YOKI SULTON?

Oltinoy Masaliyevna Masaliyeva

Tarix fanlari doktori (DSc)
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Toshkent, O‘zbekiston

Muhammad Abdulaziz Muhitdinov

Cyber davlat universiteti
Toshkent, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: Amir Temur, sohibqiron, ko‘ragon, Chingiziylar, “Yaso”, sulton, legitimlik, Temuriylar davlati.

Annotatsiya: Ushbu maqola XIV asrning buyuk davlat arbobi va sarkardasi Temurning siyosiy unvoni va davlat boshqaruvidagi legitimlik masalalarini tahlil qiladi. Tadqiqotda Temur ulkan imperiya barpo etgan bo‘lsa-da,

«sulton» yoki «xon» unvonini emas, balki «amir» va «ko‘ragon» maqomlarini tanlagani haqiqatga to‘g‘ri keladimi yoki yo‘qligi haqida tarixiy manbalar asosida bahs yuritilgan. Maqolada Chingiziylarning «Yaso» qonunlari va islom davlatchiligi an‘analari o‘rtasidagi sintez, shuningdek, Temurning xalqaro diplomatik munosabatlardagi maqomi o‘rganiladi.

АМИР ТЕМУР САХИБКИРАН: АМИР ИЛИ СУЛТАН?

Олтиной Масалиевна Масалиева

Доктор исторических наук (DSc),

Узбекский государственный университет мировых языков

Ташкент, Узбекистан

Мухаммад Абдулазиз Мухитдинов

Cyber государственный университет

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Амир Темур, сахибкиран, курагон, чингизиды, “Яса”, султан, легитимность, государство Тимуридов.

Аннотация: В данной статье анализируются политический титул великого государственного деятеля и полководца XIV века Темура, а также вопросы легитимности в государственном управлении. На основе исторических источников в исследовании дискутируется вопрос о том, соответствует ли действительности тот факт, что Темур, несмотря на создание огромной империи, выбрал статусы «амир» и «курагон», а не титулы «султан» или «хан». В статье рассматривается синтез между законами «Ясы» Чингизидов и традициями исламской государственности, а также статус Темура в международных дипломатических отношениях.

Kirish. Ma'lumki, yurtimizda bu yil O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qaroriga ko'ra "Buyuk davlat arbobi va sarkarda, ilm-fan, madaniyat va san'at homiysi Sohibqiron Amir Temur tavalludining 690 yilligi keng nishonlandi [1].

XIV asrning ikkinchi yarmida Markaziy Osiyo va Yaqin Sharq siyosiy xaritasida paydo bo'lgan Temuriylar saltanati o'zining boshqaruv tizimi bilan ajralib turadi. Saltanat asoschisi Amir Temur (1336 – 1405) tarixda kamdan-kam uchraydigan harbiy muvaffaqiyatlarga erishgan bo'lsa-da, uning rasmiy unvoni borasidagi bahslar hamon dolzarbdir.

Metodologiya. Tadqiqotda tarixiy-qiyosiy tahlil va germeneytika metodlaridan foydalanilgan. “Temur tuzuklari”, Hofiz Tanish Buxoriyning “Abdullanoma”, Qarsoqpay toshidagi “Temur toshbitigi”, Temurning qabr toshi, tangalar, Yevropa qirollari (masalan, Fransiya qiroli Karl VI yoki Ispaniya elchisi Klavixo qaydlari) va Usmonli sultonlari bilan bo‘lgan yozishmalari asosiy manba sifatida olindi.

Tahlil va natijalar. Tarixiy an’anaga ko‘ra, Temur davrida Markaziy Osiyoda hokimiyatga da’vogarlik qilish uchun «oltin avlod» (chingiziylar) vakili bo‘lish shart edi. Temur barlos urug‘idan bo‘lgani sababli, Chingizxon «Yaso»siga ko‘ra «xon» unvonini ololmas edi.

Bu haqida Hofiz Tanish Buxoriyning “Abdullanoma” asarida “Qutbid dunyo va din Amir Temur ko‘ragon ham Chingizxon naslidan bo‘lgan bir shaxsni xon ko‘tarib, unga xon nomini berar edi. Bu narsa Chingizxonning bobosi bilan Amir Temurning sakkizinchi bobosi Qorajor no‘yon oralarida tuzilgan ahdga asoslangan edi. O‘sha ahdda xonlik martabasi Chingiziylar xonadonida va amir-ul-umarolik martabasi esa Qorajor no‘yon xonadonida bo‘lishi ko‘rsatilgan edi” [7] deyilgan.

Albatta, sohibqiron Temur bu qoidaga amal qilgan, mo‘g‘ullarning bu qat’iy “genetik” qonunini buzmoqchi bo‘lmagan, chunki bu ko‘plab isyonlarga va boshqa xonlarning birlashishiga sabab bo‘lishi mumkin edi. Temur taxtga qo‘g‘irchoq xonlarni (Suyurg‘atmish va Sulton Mahmud) o‘tkazib, o‘zini “Amiri kabir” (Ulug‘ amir) deb atadi. Bu bilan u mavjud siyosiy tartibni buzmaganda holda real hokimiyatni o‘z qo‘lida saqlab qoldi.

Lekin tarixchilar va tilshunolar bu “Amir” so‘zi oddiy qo‘mondon ma’nosida emas, balki davlatni amalda boshqaruvchi “Ulug‘ Amir” ma’nosida ishlatilgan, deb bahs yuritishgan.

Temurning Chingizxon avlodidan bo‘lgan Saroymulk xonimga (Bibixonim) uylanishi unga «Ko‘ragon» (xonning kuyovi) unvonini berdi. Bu unvon Temurga chingiziylar nomidan qo‘shin to‘plash va davlatni boshqarish imkonini bergan eng yuqori qonuniy maqom edi.

Lekin mo‘g‘illar ustidan uzil-kesil g‘alabadan so‘ng bu qoida o‘zgargani aniq.

1391 yilda amir Temur To‘xtamishxonga qarshi yurish qilganda, Oltincho‘qi tog‘i tepasida to‘xtab, tarix uchun ushbu yozuvni qoldirishni buyurgan. 1938 yilda qozog‘istonlik o‘lkashunolar ushbu mashhur “Temur toshi”ni topishgan va u hozirda Sankt-Peterburgdagi Ermitaj muzeyida saqlanmoqda. Matnda “Turonning sultoni Temurbek uch yuz ming cherig bilan islom uchun To‘xtamishxon ustiga yurish” qilgani yozilgandi. Temur 1391 yilgi yurishda ilk bor Dashti Qipchoqning markaziy qismiga, notanish va suvsiz cho‘llarga juda ichkarilab kirgan edi. Uch oylik mashaqqatli yo‘ldan so‘ng, qo‘shinning ruhiyatini ko‘tarish va kelajak avlodlarga bu “g‘olibona yurish”dan nishon qoldirish uchun Oltincho‘qqi tog‘ida o‘sha mashhur yozuvni qoldirgan. Xullas, 1391 yilgi Qunduzcha jangi To‘xtamish ustidan birinchi yirik g‘alaba

bo'lsa, 1395 yilgi Terek jangi uning hukmronligiga qo'yilgan so'nggi nuqta bo'lgan. Nima uchun toshda "Sulton" deb yozilgan va nima uchun tarixda "Amir" bo'lib qolgan? degan mantiqiy savol tug'ilishi tabiiy.

Temurbek davrida "Sulton" atamasi oliy hukmdorlikni anglatgan. 1391 yildagi yurish paytida u o'zini Dashti Qipchoq (Oltin O'rda) hukmdori To'xtamishxonga teng kuch sifatida namoyon etishi kerak edi. 1391 yildagi g'alaba Temurga Dashti Qipchoqni o'z ta'siriga olish imkonini berdi. O'zini o'sha hududda "Sulton" deb e'lon qilishi – "Men endi bu yerlarning ham qonuniy egasiman" degan da'vo edi.

Toshbitikda o'zini "Turon sultoni" deb atashi - uning nafaqat Movarounnahr, balki butun mintaqaning mutlaq hukmdori ekanini da'vo qilishi edi. "Sulton" so'zi islom olamida siyosiy mustaqillik va oliy kuch belgisi hisoblangan. Saljuqiylar va Xorazmshohlar davridan boshlab, turkiy hukmdorlar islomiy olamda o'zlarini "sulton" deb atashni boshlaganlar. Sulton unvoni nasabga (kimning avlodi ekaniga) emas, balki shaxsiy qudrat va adolatga asoslangan. Ya'ni, "Kimning qilichi o'tkir va adolati kuchli bo'lsa, o'sha sultondir". [3,5.]

Fikrimizcha, agar davlat boshqaruvi va hukmronlik miqyosidan kelib chiqilsa, "sulton" deyish to'g'ri bo'lardi, chunki "sulton" - bu siyosiy va dunyoviy hokimiyat egasi. Temurbekning qudrati o'sha davrdagi har qanday sultonnikidan baland bo'lgani aniq, lekin past emas edi. "Amir" - bu ko'proq harbiy unvon. Lekin Temurbek uchun bu unvon Chingizxon (Yaso) qonunlariga bo'lgan hurmat va siyosiy ehtiyotkorlik belgisi bo'lgan bo'lishi ham mumkin. Darhaqiqat, amir Temurning siyosiy maqomi va unvonlari vaqt o'tishi bilan, ayniqsa yirik g'alabalardan so'ng o'zgarib borgan. Aynan 1390-yillarning ikkinchi yarmi va 1400-yillarning boshlarida zarb etilgan tangalarda "Sulton" so'zi ko'p uchraydi. Masalan, uning tangalarida ko'pincha shunday yozuvlar bo'lgan: "Sulton Mahmudxon - Amir Temur Ko'ragon" (Bu yerda Mahmudxon rasmiy xon, Temur esa amaliy hukmdor). Biroq, ba'zi viloyatlarda zarb etilgan tangalarda Temurning o'ziga nisbatan "Sultoni a'zam" (Buyuk sulton) sifati qo'llanilgan.

Temurbekning Yevropa qirollari (masalan, Fransiya qiroli Karl VI yoki Ispaniya elchisi Klavixo qaydlari) va Usmonli sultonlari bilan bo'lgan yozishmalarida u o'zini nafaqat "Amir", balki islom olamining eng oliy hukmdori sifatida tanishtirgan. Qarsoqpay toshidagidek "Turon sultoni" atamasi uning xalqaro maydondagi "vizitkasi" bo'lib xizmat qilgan.

Qarsoqpay toshidagi "Sulton" atamasi - bu Temurning o'z siyosiy maqomini yuksaltirish yo'lidagi dastlabki va eng jasoratli qadamlaridan birining namunasidir.

Yana bir muhim jihat "Temur tuzuklari" asarida u o'z boshqaruv tizimini ko'pincha "sultonlik" (saltanat) deb ataydi. U yerda: "Saltanat qurishimda to'rt narsaga amal qildim...",

“Sultonlik yumushlarini kengash va mashvarat bilan yuritdim...” - kabi jumlar uchraydi. Bu uning o‘z hokimiyatini mohiyatan “sultonlik” deb bilganini ko‘rsatadi [4,7].

Amir Temurning qabr toshidagi (nefrit) uzun shajara matnida uning unvonlari qatorida “Sulton” atamasi aniq yozilgan. Hāzā marqadu as-Sultāni-l-’A’zam va-l-Khāqāni-l-Mu’azzam... Tarjima: “Bu - Buyuk sulton va ulug‘ hoqon, karamli xoqon (Temurbek)ning oromgohidir...” [6].

Yana bir qiziq jihat, Amir Temur vafot etgach, uning o‘g‘li Shohrux Mirzo (1405–1447) davlat boshqaruvida katta o‘zgarish qildi. U Chingizxonning “Yaso” qonunlaridan ko‘ra islom shariatiga ko‘proq urg‘u bera boshladi. U o‘zini rasman “As-sultonul a’zam” (Buyuk sulton) deb e’lon qildi. Shohrux davrida zarb etilgan tangalarda “amir” so‘zi o‘rniga “sulton” atamasi markaziy o‘ringa chiqdi.

Temurning nabirasi Mirzo Ulug‘bek ham o‘z davrida ham “amir”, ham “sulton” unvonlaridan foydalangan. Uning Samarqanddagi mashhur madrasasi peshtoqida va ilmiy asarlarida ulug‘ hukmdor sifatida “sulton” sifati qo‘llanilgan.

Temuriy shahzodalar (Masalan, Sulton Abu Said, Sulton Husayn Boyqaro) ismlarining oldiga “sulton” unvoni qo‘shib aytilishi qoidaga aylandi. Bu ularning sulolaviy maqomini anglatar edi. Shu yerda temuriylar davriga kelib, “sulton” atamasi qanday va qachon paydo bo‘ldi? degan mantiqiy, haqli savol tug‘iladi.

Fikrimizcha, Agar Temurbek 1391 yilda toshga “sulton” deb yozdirib, birinchi qadamni qo‘ymaganida, ehtimol, uning avlodlari ham uzoq vaqt “amir” bo‘lib yurishga majbur bo‘lardilar. Demak, Temurning aslida “sulton” bo‘lgani uning avlodlari tomonidan to‘laqonli amalga oshirilgan tarixiy faktdir. Temur Qarsoqpay toshida o‘zini “sulton” deb atab, vorislari uchun poydevor qo‘yib ketgan desak bo‘ladi. U “amir” unvoni bilan ehtiyotkorlik qilgan bo‘lsa, o‘g‘illari va nabiralari uning qudratiga tayanib, bu unvonni to‘laqonli va rasmiy tarzda qabul qilishgan.

Xulosa qilib aytganda, Temur o‘z faoliyati davomida ikki xil siyosiy an‘ana orasida muvozanat saqlagan, lekin vaqt o‘tishi bilan islomiy-turkiy davlatchilik (sultonlik) g‘oyasi ustuvor bo‘lib borgan.

Agar Qarsoqpay toshi yurish paytidagi “tirik” dalil bo‘lsa, Go‘ri Amir toshi davlatchilik tarixidagi “muhr”dir. Har ikki manbada ham “sulton” atamasining birinchi navbatda ishlatilishi, uning mo‘g‘ullardan qutilib, mustaqil islomiy-turkiy podshohlik tuzganini to‘laqonli isbotlaydi.

Temurni “sulton” deb atash balki tarixiy haqiqatning tiklanishidir. Agar darsliklarda ham “Amir Temur” bilan bir qatorda “Sulton Temur” atamasi ishlatilsa, uning mustaqil davlat quruvchisi sifatidagi qiyofasi yanada yorqinroq namoyon bo‘lardi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "Buyuk davlat arbobi va sarkarda, ilm-fan, madaniyat va san'at homiysi Sohibqiron Amir Temur tavalludining 690 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi 2026 yil 5 fevraldagi PQ-46-son Qarori.
2. Темур тузуклари. Форсчадан А.Соғуний ва Ҳ.Кароматов тарж. Б.Аҳмедов таҳрири остида. Тошкент, Нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1991. 144 б.
3. Масалиева О. (1999). История Бухарского, Хивинского и Кокандского ханств в англо-американской историографии XX века. – Ташкент.
4. Masaliyeva O. Masaliyeva. (2025). State administration and divans: terms and structure. International Journal Of History And Political Sciences 5 (03), 40-43.
5. Masaliyeva O. (2024). Buxoro xonligi manbashunosligi hamda Vatan va xorijiy tarixshunosligining rivojlanish muammolari (XX – XXI asr boshlari) / Monografiya. – Toshkent: FAST SUPPORT AND RESULT, – 240 b.
6. Самарқанддаги Гўри Амир мақбараси тошбитиги.
7. Ҳофиз таниш ал-Бухорий. Абдуллонома ("Шарафномаи шоҳий"). Биринчи китоб. Форс тилидан С.Мирзаев тарж.; сўз боши ва изоҳлар муаллифи Б.Аҳмедов. Т.: Шарқ, 1999. Б.67.